



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Dilrabo Ismoilova

Axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi

Po'latova Mohichehra

FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy talablari, o'quvchilar bilimini rivojlantirishdagi o'rni hamda dars samaradorligiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Matnda AKTning o'quvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirish, ularning tasavvurini boyitish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va o'quv jarayonini interfaol muhitda tashkil etishdagi ahamiyati batafsil asoslab berilgan. Shuningdek, matematika darslarining bosqichlarida texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, axborot, texnologiya, AKT, kompyuter, taqdimot, multimediya,

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi eng muhim vazifalardan biri o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishdir. Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchining keyingi bilim olish bosqichiga tayyorlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgani uchun bunda qo'llaniladigan metodlar, vositalar, yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, matematika fani o'quvchidan aniqlik, mantiqiy fikrlash, tartib bilan ishlashni talab qiladigan murakkab fanlardan bo'lib, uni boshlang'ich sinflardan boshlab to'g'ri tashkil etish kelgusida o'quvchi muvaffaqiyati uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan axborot texnologiyalari boshlang'ich sinf matematika darslari sifatini oshirish, mavzularni aniq va ko'rgazmali tushuntirish, o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda juda katta imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining fikrlashi ko'proq tasvirli va obrazli bo'lgani uchun matematik tushunchalar ham ko'rgazmali vositalar, animatsiyalar, multimedia tasvirlari, interaktiv mashqlar orqali taqdim etilganda samaradorlik yuqori bo'ladi. AKTning qo'llanishi nafaqat o'quvchining fan bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydi, balki darsda ishtirok etish motivatsiyasini kuchaytiradi, o'rganayotgan mavzuga nisbatan yangi munosabat va qiziqish uyg'otadi. Shu bois ushbu maqolada axborot texnologiyalarining boshlang'ich matematika darslari jarayoniga integratsiyalanishi, undan foydalanishning usullari, darsning turli bosqichlarida qo'llanishi va kutiladigan natijalar batafsil yoritiladi.

Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Dars jarayonida kompyuter, planshet, elektron darsliklar, animatsion videolar, interaktiv dasturlardan foydalanish o'quvchilarga yangi mavzuni ko'rgazmali tarzda qabul qilish imkonini beradi.

Ayniqsa, matematika darslarida sonlar, amallar, shakllar, o'lchov birliklari, masalalarni tasviriy asosda ko'rsatish o'quvchilar idrokining shakllanishiga yordam beradi. Masalan,



oddiy arifmetik amallarni faqat og'zaki tushuntirishdan ko'ra, interaktiv animatsiyada predmetlar harakatini ko'rsatish o'quvchining tezroq tushunishiga olib keladi.

Bu jarayonda bolalar nafaqat ko'radi, balki ko'rilgan narsani tahlil qiladi, xulosa chiqaradi, taqqoslaydi, bu esa matematik fikrlashni rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda AKT vositalari o'quvchini o'qish jarayonida faol subyektg aylantiradi.

Masalan, interfaol doskada berilgan topshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, shakllarni o'zi suradi, sonlarni moslaydi, amallarni bajaradi. Bu jarayon orqali u darsga faol kirishadi, faqat tinglovchi emas, balki bajaruvchi, izlovchi va xulosa qiluvchi shaxsga aylanadi. Bu hol o'qituvchining darsdagi boshqaruvini ham yengillashtiradi, chunki o'quvchilarning faolligi oshgan sari dars jarayoni tabiiy ravishda jonlanadi.

Axborot texnologiyalari matematika darslarining har bir bosqichida o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin. Darsning tashkiliy qismida qisqa animatsion video yoki qiziqarli rasmlar yordamida o'quvchilar diqqatini mavzuga jalb qilish mumkin. Bunday boshlanish o'quvchilarning psixologik tayyorgarligini kuchaytiradi, ularni mavzuga mos ruhiy holatga olib kiradi. Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida esa AKTning ko'rgazmali imkoniyatlari ayniqsa foydalidir. Masalan, geometrik shakllarni uch o'lchamli ko'rinishda tasvirlash, sonlar ketma-ketligini grafik ko'rinishda ko'rsatish, yig'indi va ayirma jarayonlarini animatsiya orqali taqdim etish bolalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga xizmat qiladi.

Bunda o'quvchi mavzuni nafaqat eshitadi, balki ko'radi, solishtiradi va xulosa chiqaradi.

Olib borilayotgan bu islohotlar o'qituvchilar va o'quvchilar oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi — darsning samaradorligini, uning sifatligini oshirish hamda maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlarining tashkil qilinishi va o'quvchilarning turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishlaridir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga aniq maqsad bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olmasdan dars jarayonida qiziqarli muhit yarata olmas ekan, natijada o'quvchilarning bilimni o'zlashtira olmasliklariga sabab bo'ladi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ko'ra inson ong ma'lumotlarning 90% ni ko'rish, 9% ni eshitish, 1% ni esa his qilish orqali qabul qilarkan. Bundan kelib chiqib, dars jarayonida ko'proq multimediyadan samarali foydalanish darsliklar orqali o'quvchilarga ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish va darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Zero bugungi kunda dars jarayonini samaradorligini oshirishda turli xil innovatsion texnologiya va axborot texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida axborot bir zumda ishonchli tarzda uzatilmoqda va bu hodisa, albatta, o'quvchilar ongiga ham obyektiv borliqni ko'ra olish ko'nikmasini shakllantiradi. Har qanday innovatsion texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanilishi



o'quvchilarni darslarda faollroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziqvchan bo'lishga o'rgatadi, chunki tasvirga qo'yilgan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi. Bu orqali fanga bo'lgan qiziqish uyg'onib, o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash, mavzuni o'rganishda o'zi uchun qulay bo'lgan tezlik va o'zlashtirish darajasini tanlash imkoniyatini beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- muhokamalar uchun savollar;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiyaga singari omillarni aniqlab olish lozim bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi.

Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin.

Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlardan berilgan grammatika, geografik mavzular bo'yicha boy va turlicha materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan.

Turli murakkablik darajasidagi turli xil topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi.

Ularning ustunlik tomonlari sifatida paytda masalaning bosqicha qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash imkoniyatidir.

Shuningdek, matematik slaydlarda harakatlanishining animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash o'quvchilarning darsni yaxshi tushunishlariga hamda birvarakayiga ongli o'rganishlariga karitkandalardan foydalanishni mamnun qiladi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, axborot texnologiyalari boshlang'ich sinf matematika darslarining sifatini keskin oshiradi. Mavzularning ko'rgazmali, tushunarli va qiziqarli bo'lishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini mustaqil qo'llay boshlaydi, mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.



Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga to'liq mos keladi. AKTdan foydalanish o'qituvchiga darsni samarali tashkil etish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, individual yondashuvni kuchaytirish va o'quvchilarni faol o'rganishga yo'naltirish imkonini beradi.

Natijada matematika darslari nafaqat fanni o'rganish, balki ijodkorlik, izlanish va mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi jarayonga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muxlisov S. S., Kuchkarbayev R. U., Xazratov F. X. Ta'limda axborot texnologiyalari : o'quv qo'llanma. — Buxoro, 2012.
2. Abdullayeva M. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari. — (darslik), Yangi Chirchiq Book, 2022. ISBN: 978-9943-7652-0-7.
3. Aripov M., Begalov B., Begimqulov Sh. Axborot texnologiyalari: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Noshir, 2009.
4. Eshnazarova M. Yu. Ta'limda axborot texnologiyalari : uslubiy qo'llanma. — Toshkent, 2018.
5. Aripov M., Abduqodirov A., Xoshimov K. Axborot texnologiyalari. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
6. Qodirov A. Raqamli pedagogika: Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.